

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI IRRIGATSIYA VA AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI

LUTFULLAYEV ABDUVALI ABDUNABIYEVICH

**XALQARO YAGONA AXBOROT MAYDONINING KENGAYISHI
SHAROITIDA MA'NAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHISH**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Lutfullayev Abduvali Abdunabiyevich

Xalqaro yagona axborot maydonining kengayishi sharoitida
ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish 53

Лутфуллаев Абдували Абдунабиевич

Работа с духовными угрозами в условиях расширения единого
международного информационного пространства 21

Lutfullayev Abduvali Abdunabiyevich

Dealing with moral threats in the context of the expansion of the
international unified information space 41

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of publications 46

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI IRRIGATSIYA VA AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI

LUTFULLAYEV ABDUVALI ABDUNABIYEVICH

**XALQARO YAGONA AXBOROT MAYDONINING KENGAYISHI
SHAROITIDA MA'NAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHISH**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.PhD/Fal488 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Erkayev Abdurahim Panjiyevich
falsafa fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponenlar:

Muzaffarov Firuz Davronovich
falsafa fanlari doktori, dotsent

To'rayev Shavkat Nishonovich
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil "14" Oktabr soat 14"⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "30" sentabr kuni tarqatildi.
(2023-yil "30" sentabr dagi 21 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Navro'zova G. N.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipova O.T.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yagona axborot maydoni global mohiyat kasb etib, inson tafakkuri, ma'naviy-axloqiy olami va yashash tarziga, qadriyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan qudratli vositaga aylanib borayotganligi milliy qadriyatlarni himoya qilishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratishni talab etmoqda. Bu esa o'z navbatida axborot hukmronligi asri deb nomlangan bugungi davrda manipulyasiya qilishga, "rangli inqiloblar" sodir etishga, biryoqlama, noto'g'ri axborotlarni aralashtirib, jahon jamoatchiligini chalg'itishga qaratilgan tahdidlarni intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, ilg'or texnologiyalar hamda milliy mafkura orqali bartaraf etish lozimligini namoyon etadi. Ayniqsa, yagona axborot maydonida inson ijtimoiy mohiyatini belgilovchi hayotiy maqsad, ijtimoiy rol, amal qilinayotgan prinsiplar hamda ularni rivojlantiruvchi milliy g'oya, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy muhit, o'zini-o'zi anglash va tarbiyalash kabi omillarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida axborotlashgan jamiyat, internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron o'yinlarning inson ma'naviyati va psixologiyasiga ta'siri, virtual makon hamda zamonaviy texnologiyalar samaradorligini oshirishga oid keng ko'lamda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Axborot, bilim va axborot texnologiyalari rolining oshishi ta'lim-tarbiya tizimining mavjud ma'naviy tahdidlarga qarshi tura olishini, bu masalaga butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini safarbar etishni talab etmoqda. Shu bois, xalqaro integratsiyaning kuchayishi va yagona axborot maydoni sharoitida milliy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlardan begonalashuv kabi illatlarni bartaraf etish, milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlik kabi salbiy holatlarning oldini olishda, "sog'lom axloqiy-ma'naviy muhit"ni shakllantirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish, ma'rifatli jamiyat qurish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, tafakkur va axborot erkinligini ta'minlash, xalqimizning ma'naviy qiyofasini shakllantirish, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalashga qaratilgan islohotlar shiddat bilan olib borilmoqda. "Globallashuv jarayonida axborot maydonidagi yangilanishlar ta'siri kuchayib, ommaviy axborot vositalarining o'rnini va ahamiyati ham tobora ortib bormoqda. Barcha sohalar kabi axborot olish va uni yetkazish, ta'sirchan jamoatchilik fikrini shakllantirish borasida ham raqobat keskin tus olmoqda. Bunday murakkab sharoitda hayot oldimizga yangi-yangi talab va vazifalarni qo'yimoqda"¹. Shu nuqtai nazardan sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish, axborotlashgan jamiyatda odamlar ongida yangi zamon qadriyatlarini singdirish, jahon xalqlari yutuqlaridan foydalanish asosida sog'lom ma'naviy raqobat tizimini shakllantirish va rivojlantirish, zamonaviy ma'naviy tahdidlardan himoyalash omillari bo'lgan kreativ bilim, tarbiyaning pragmatik hamda ratsional xususiyatlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев.Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент. "O'zbekiston", 2021. – Б. 383

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-son “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021 yil 4 martdagi PF-6181-son “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiya”ni tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 oktabrdagi 888-son “Internet jahon axborot tarmog‘ida milliy kontentni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023 yil 6 maydagi 192-son “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini 2023 va 2024 yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek sohaga oid boshqa hujjatlar ijrosini amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Axborot va axborotlashtirish masalalari, ularning jamiyat hayotining turli sohalariga ta’siri ko‘pgina olimlar, faylasuflar, tadqiqotchilar va mutaxassislarining doimiy e’tiborida bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham mazkur muammolarni o‘rganish hamda ularning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab olish uchun iqtisodiy, texnik, ijtimoiy-madaniy va falsafiy yondashuvlar asosida tadqiqotlar olib borilgan. Axborot, axborotlashtirish jarayonlariga oid muammolar bilan shug‘ullangan olimlardan D.Bell, E.Toftler, M.Kastels, O.I. Shkaratana, F.Uebster, A.Chernov, R.Abdeev, I.Melyuxin tadqiqotlari axborotning atributiv va funksional xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan².

Hozirgi davrda axborot oqimi nazariyasi ilmiy-metodologik jihatdan N.Vinner, K.Shenon, C.Xantington, A.Aslan kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. A.Toynbi, O.Shpengler, F.Fukuyama, singari o‘nlab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida globallashuv sharoitida dunyoning ma’naviy-mafkuraviy tebranishlari, turli jamiyatlararo, guruhlararo ziddiyatlar, hayot tarzlari,

² Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. - Москва: Академия, 1999; Тоффлер Э. Футурошок /Э.Тоффлер. – СПб.: Лань, 1997; Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество, культура /М.Кастельс. – Пер. с англ. Под науч. Рук. Фомин М.В. Трансиндустриализм – предстоящая социальная реальность. – Вопросы философии, 2018, №1, 42-54 стр. О.И. Шкаратана. – М.: 2000; Уэбстер Ф. Теории информационного общества /Фрэнк Уэбстер; Пер. с англ. М.В. Арапова, Н.В. Малыхиной; Под ред. Е.Л. Вартановой. – М.: Аспект Пресс, 2004. Чернов А.А. Становление глобального информационного общества. Проблемы и перспективы / А.А. Чернов. – М.: 2003; Абдеев Р.Ф. Философия информационной цивилизации: Учебное пособие /М.: ВЛАДОС, 1994; Мелюхин И.С. Информационное общество: истоки, проблемы, тенденции развития /И.С. Мелюхин. – Москва: Изд-во Московского университета, 1999.

dunyoqarashlar qarama-qarshiligi, jamiyat va inson ma'naviy qiyofasining tuslanishi nazariy jihatdan tahlil qilingan³.

MDH mamlakatlarida axborot va axborotlashtirishning falsafiy-metodologik masalalarini tahlil etish asosida V.Kanke, V.Styopin, V.Goroxov, M.Rozov singari olimlar maxsus ilmiy-nazariy qarashlarni ishlab chiqishgan. Ba'zi bir mualliflar axborotning atributivligini tan olishib, uni materiyadagi barcha moddiy obyektlarga taalluqli xususiyat sifatida ta'riflashadi (N.V Koritnikova, K.Morozov, A.Ursul, V.N.Podshivalov va G.V.Lakazova)⁴. Bu olimlar axborot va axborotlashtirish masalalarini "postindustrial jamiyat" va "axborotlashgan jamiyat" konsepsiyalarining sinonimi sifatida tadqiq etish orqali ularga umumijtimoiy va falsafiy masala, deb qarashgan.

O'zbekistonda ushbu muammo I.Saifnazarov tadqiqotlarida oilada millat davomiyligi, milliy qadriyatlarining boqiyliqi, saqlanishi, oilada avlodlar umr zanjirini mustahkamlovchi avlod dunyoga kelishi va kamol topishi yo'nalishida⁵, S.Otamuratov shaxs ma'naviy kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi "ommaviy ma'naviyat" tahdid⁶, N.N. Teshayev jamiyatimiz taraqqiyotining muhim jarayonlariga ilm-fan va yangi texnologiyalarning ta'siri, ularning o'zaro aloqadorligi kontekstida⁷, yoshlarda yangicha tafakkur tarzi va dunyoqarashni shakllantirish muammolari K.Tulenova, Sh.Madayeva, M.Qahhorova maqolalarida, ilmiy ijod va ijtimoiy munosabatlarga yangicha yondashuv masalalari N.Shermuhammedova, R.Bahodirov va E.Izzetova asarlarida tadqiq etilgan. A.Erkayev "axborot maydoni milliy chegaralarni bilmaydi, uni sun'iy toraytirish va cheklash imkonsiz"⁸ ekanligini, B. Primov esa axborot oqimi jadallashuvining yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ta'sirini, G.Karimova O'zbekistonda axborotlashgan jamiyat shakllanishining milliy axloqiy jihatlarini, G.G'affarova, D.Jumanov ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri⁹

³ Винер Н. Человек управляющий. СПб: Питер, 2001. -С.25. Тойнби А. Постигжение истории. - М., 1996. - С. 504, 1 Шпенглер О. Закат Европы. - М: Наука, 1993. -592 с, С. Хантингтон. «Столкновение цивилизаций». М.: ООО «Издательство АСТ», 2003. – 603, https://ansari.nd.edu/assets/398651/adnan_aslan_cv.pdf, Шенон К. Статистическая теория передачи сигналов // Теория передачи электрических сигналов при наличии помех. М., 1953.-С.166. F.Fukuyama Identity: The Demand for Dignity and the Politics of Resentment [Книга]. - New York : Farrar, Straus and Giroux, 2018. - Т. Preface.

⁴ Канке В.А. Основы философии: Учебник для студентов средних специальных учебных заведений. - М.: Логос, 2003. -288с. Подшивалов В.Н. Социальная ответственность личности: философско – антропологический аспект. Автореферат канд. филос.н.–Челябенск; 2009; Коритникова, Н. В. Интернет как средство производства сетевых коммуникаций в условиях виртуализации общества. Социологические исследования. 2007, № 2, 85-93 стр.Лаказова Г.В. Долженствование и ответственность в системе социальных отношении. Автореферат канд. филос.н.– Ставрополь; 2011. Горохов В.Г. Научно-техническая политика в обществе не-знания. // Вопросы философии // 2007, №12, 65-80 стр. Ракитов А.И. Философия компьютерной революции. –Москва: Политиздат, 1991. -С.334. Стёпин В.С., Горохов В.Г., Розов М.А. Философия, наука и техника. Москва, Контакт-Альфа, 1995. С.89. Урсул А.Д. Диалектика определенности и неопределенности. Кишинев, 1996. -С.61.

⁵ Саифназаров И., Саифназарова Ф. Ёшлар ва оила – Ватан таянчи. –Тошкент.: “Таълим нашр”, 2018. -Б. 130.

⁶ Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. –Тошкент.: Ўзбекистон, 2013.-Б. 456.

⁷ Teshayev N.N. Vatanparvarlik –yuksak ma'naviy-axloqiy fazilat. World social science. Scientific –practical journal. 2021-2. –Б.58-60.

⁸ А.Эркаев“Манавиятшунослик” Тошкент.: Ма'naviyat, 2018 . том-2. В. 265.

⁹ Каримова Г. Ўзбекистонда ахборотлашган жамият шаклланишининг миллий ахлоқий жиҳатлари Фалс.ф. бўйича фалс.д. (PhD) дисс.автореф. - Бухоро: БухДУ, 2020, Ибрагимов Э.Х. Маънавий-руҳий манипуляциянинг ёшлар дунёқарашига таъсири: Фалс.ф. бўйича фалс.д. (PhD) дисс.автореф. - Самарқанд:

hamda Sh.To‘rayev ma’naviy-ma’rifiy siyosatning tadrijiy rivojlanishida ijtimoiy adolat masalasiga e’tibor qaratishgan¹⁰.

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar mavzuni tadqiq etishda nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu tadqiqotlarda axborot va axborot oqimi jadallashuvining ontologik va metodologik xususiyatlari tahlil etilib, tarbiyaviy-funksional jihatlar, ijtimoiy ongga ta’siri alohida o‘rganilmagan, ayniqsa yoshlar axloqiy-ma’naviy tarbiyasiga salbiy yoki ijobiy ta’siri masalasini yoritib beruvchi qarashlar ilgari surilmagan. Mazkur dissertatsiyada ulardan farqli ravishda jamiyatda internetga moyillik avj olayotgan bugungi sharoitda jamiyatning o‘zgarishi, mental o‘zgarishlarni yuzaga keltiruvchi obyektiv va subyektiv omillarning yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ta’siri masalasini o‘rganish hamda mavjud muammoni hal qilishga qaratilgan konstruktiv mexanizmlarni ishlab chiqishga diqqat qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A-1-173 raqamli “Barkamol inson shaxsini shakllantirishning obyektiv shart-sharoitlari va subyektiv omillari” (2020-2025 yy.) yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xalqaro axborot maydonining kengayishi sharoitida ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashishga oid ijtimoiy-falsafiy muammolarni aniqlash va ularning yechimlariga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xalqaro integratsiyaning kuchayishi, globallasuv tendensiyasi tufayli yagona axborot maydonining rivojlanish tendensiyasini aniqlashtirish;

axborot maydonining o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish;

postmodern jamiyatning yagona axborot maydonida ma’naviyatga xavf soluvchi yangi tahdidlarning paydo bo‘layotgan salbiy holatlarini ochib berish;

virtual olam gipervoqelik sifatida yoshlar ongiga va xulqiga ta’sirini asoslab berish;

zamonaviy ma’naviy tahdidlarning “ommaviy madaniyat” bilan bog‘liq turlarini tadqiq qilish;

tarbiya jarayonida yagona axborot maydonida mavjud ma’naviy tahdidlardan himoyalash yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida axborot oqimi jadallashuvining zamonaviy jamiyat hayotiga har xil ta’sir shakllaridan himoyalalanish yo‘llari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti xalqaro yagona axborot maydonining kengayishi sharoitida ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashishni tizimli va tanqidiy tahlil asosida tadqiq etish tashkil etadi.

СамДУ, 2020, Гаффарова Г., Жуманов Д. Ижтимоий тармоқларнинг ёшлар маънавиятига таъсири.// Academic research in educational sciences, 2021, №4.

¹⁰ To‘rayev, Sh. “O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy siyosatning tadrijiy rivojlanishida ijtimoiy adolat masalasi” Toshkent: «Kamalak», 2016. - 112 б.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, obyektivlik, tarixiylik va mantiqiylik, kompleks yondashuv, dialektik, sinergetik, qiyosiy tahlil, sotsiologik so‘rov kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yagona axborot maydonida inson ijtimoiy mohiyatini belgilovchi hayotiy maqsad, ijtimoiy rol, amal qilinayotgan prinsiplar va bajarilayotgan vazifalar kabi tushunchalar hamda ularni rivojlantiruvchi milliy g‘oya, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy muhit, o‘zini-o‘zi anglash va tarbiyalash kabi omillarni barqarorlashtirishda jamiyat ma’naviyati, xususan urf-odatlar, dunyoqarash, e’tiqod, his-tuyg‘ular, orzu-intilishlarni inobatga olish zarurligi ochib berilgan;

uzatilayotgan axborot orqali yoshlar dunyoqarashi, ma’naviy mo‘ljallari o‘zgarishi, yoshlar ongiga va axloqiy tarbiyasiga qadriyatlar tizimiga salbiy ta’sir etuvchi axborot xavfli tus olayotgani asoslab berilgan;

globallashuv sharoitida, xalqaro integratsiyaning kuchayishi, yagona axborot maydoniga zaruriyatning to‘g‘ilishi, bugungi axborot maydonini kengaytirib, uni o‘zaro zid ba’zan feyk axborotlar bilan to‘ldirilishi, odamlar ongini boshqarishga intilish o‘ziga xos xususiyatlari ekani, postmodern jamiyatda ma’naviyatga xavf soluvchi yangi tahdidlarning paydo bo‘layotgani, zamonaviy ma’naviy tahdidlarning ommaviy madaniyat bilan bog‘liq turlari va ularga qarshi kurashishda “Sog‘lom axloqiy-ma’naviy muhit” shakllantirishning ahamiyati asoslangan;

tarbiya jarayoni yagona axborot maydonida mavjud ma’naviy tahdidlardan himoyalash omillari sifatida mumtoz va zamonaviy kreativ bilim, axborotni qayta tiklash mexanizmini ishga tushirishi ijobiy pragmatik hamda ratsional xususiyat (foydali amaliy ish harakatiga va aqliy jarayon) larga ijobiy ta’sir etishi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston yoshlari turmush tarziga xos bo‘lgan xususiyatlar, unda saqlanib qolayotgan salbiy holatlar aniqlanib, bu natijalar mehnat jamoalarida muammoga doir ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazishda qo‘llanilgan;

yagona axborot maydonida milliy g‘oya, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy muhit, o‘zini-o‘zi anglash va tarbiyalash kabi omillar mamlakatimizda ma’rifatli jamiyat qurish konsepsiyasini amalga oshirishda va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda muhim omil hamda ma’naviy dasturlarni ishlab chiqishda muqobil qarash sifatida xizmat qilishi asoslab berilgan;

tarbiya jarayonida shakllantiriladigan zamonaviy kreativ bilim ma’naviy tahdidlardan himoyalash omili sifatida yoshlar dunyoqarashini shakllanishiga ijobiy ta’sir etishi, turli buzg‘unchi g‘oyalariga qarshi kurashuvchi mustahkam g‘oyaviy immunitetni hosil qilishga xizmat qilishi mantiqiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, tadqiqot materiallaridan yagona axborot maydonining xususiyatlari va tendensiyalari, transmilliy kompaniyalar manfaatlari va raqobati bilan bog‘liq hamda turli ma‘naviy tahdidlarning kuchayishi sharoitida ularga qarshi kurash masalalarini tadqiq etishga oid nazariy va empirik tadqiqotlarni olib borishda hamda bugungi kunda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishida, bilim olishning yangi shakllari va vositalarini ishlab chiqishda, ta‘lim sohasidagi tadqiqotlar, ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlarda, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mohiyatini ochib berishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada bayon qilingan yondashuvlardan ma‘naviy tahdidlardan himoyalashga doir o‘quv-tarbiya jarayoniga keng qo‘llashda, o‘quv kurslarining fan dasturlari va ma‘ruza matnlarini, mavzuga oid darsliklarni tayyorlashda, ta‘lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishda, ta‘lim muassasalarida tayyorlanadigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirish jarayonida hamda mamlakatimizda barqaror taraqqiyotni ta‘minlash va yangi ma‘naviy qiyofani shakllantirishga qaratilgan ilmiy, ma‘naviy, madaniy sohalarida islohotlar mazmunini targ‘ib etish faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xalqaro yagona axborot maydonining kengayishi sharoitida ma‘naviy tahdidlarga qarshi kurashishning ijtimoiy-falsafiy muammolarini tahlil etish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

yagona axborot maydonida insonning ijtimoiy mohiyatini belgilovchi hayotiy maqsad, ijtimoiy rol, amal qilinayotgan prinsiplar va bajarilayotgan vazifalar kabi tushunchalar hamda ularni rivojlantiruvchi milliy g‘oya, ta‘lim-tarbiya, ijtimoiy muhit, o‘zini-o‘zi anglash va tarbiyalash kabi omillarni barqarorlashtirishda jamiyat ma‘naviyat xususan urf-odatlar, dunyoqarash, e‘tiqod, his-tuyg‘ular, orzu-intilishlarni inobatga olish zarurligiga oid taklif va tavsiyalardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2022 yilda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining I. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini targ‘ib qilish, ushbu yo‘nalishdagi ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimli va samarali tashkil qilish “O‘zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo-bosh ustuvor yo‘nalish” tamoyilini amalga tadbir etish maqsadida “Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘shnichilik aloqalarini rivojlantirishda Yangi O‘zbekiston tashabbusi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy tadbirlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2022 yil 23 avgustdagi 238-son ma‘lumotnomasi). Natijada, milliy qadriyatlar, moddiy va ma‘naviy hayot uyg‘unligiga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilishiga, axborot va so‘z erkinligi, yoshlar ma‘naviy-axloqiy olami va yashash tarzini o‘zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlarning mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

uzatilayotgan axborot orqali yoshlar dunyoqarashi, ma‘naviy mo‘ljallari o‘zgarishi, yoshlar ongiga va axloqiy tarbiyasiga qadriyatlar tizimiga salbiy ta‘sir etuvchi axborotning xavfli tus olayotganiga oid taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston

MTRK Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining “Bu kun” va “Ma’naviyatimiz sarchashmasi” ko’rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston MTRK Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2022 yil 17 noyabrdagi 12-15/189-son ma’lumotnomasi). Natijada, axborot maydoni, shuningdek, ma’naviy tahdidlar va ularga qarshi kurashishga doir ko’rsatuvlarning mazmunan boyishiga, teletomoshabinlarning bu boradagi bilim va dunyoqarashining kengayishiga xizmat qilgan;

globallashuv sharoitida, xalqaro integratsiyaning kuchayishi, yagona axborot maydoniga zaruriyatning tug‘ilishi, bugungi axborot maydonini kengaytirib, uni o‘zaro zid ba’zan feyk axborotlar bilan to‘ldirilishi, odamlar ongini boshqarishga intilish o‘ziga xos xususiyatlari ekani, postmodern jamiyatda ma’naviyatga xavf soluvchi yangi tahdidlarning paydo bo‘layotgani, zamonaviy ma’naviy tahdidlarning ommaviy madaniyat bilan bog‘liq turlari va ularga qarshi kurashishda “Sog‘lom axloqiy-ma’naviy muhit” shakllantirishning ahamiyatiga oid xulosa va umumalashmalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2022-yil 30 avgustdagi 4-13-23-2794-son ma’lumotnomasi). Natijada yoshlar dunyoqarashida axborotlashuv jarayonining shakllanishi, jamiyat ma’naviy muhitining barqarorlashuvi, ma’naviy tahdidlarga qarshi bilim egallash zaruratini asoslashga xizmat qilgan;

tarbiya jarayoni yagona axborot maydonida mavjud ma’naviy tahdidlardan himoyalash omillari sifatida mumtoz va zamonaviy kreativ bilim, axborotni qayta tiklash mexanizmini ishga tushirishi ijobiy pragmatik hamda ratsional xususiyat (foydali amaliy ish harakatiga va aqliy jarayon)larga ijobiy ta’sir etishiga doir xulosalardan hamda amaliy takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qollab-quvvatlash jamoat fondida bajarilgan “Axborot ochiqligini ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashda NNT va FJBI faoliyatini oshirish va keng ko‘lamli jamoatchilik nazoratini yo‘lga quyish” davlat granti 22-14-10/2t-07 raqamli “Korrupsiyadan xoli dunyo-umumbashariy orzusi” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘quvvatlash jamoat fondining 2023 yil 10-apreldagi 19-son ma’lumotnomasi). Natijada, amaliy tadqiqot loyihasini yanada takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tgan

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (3 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqot bajarilayotgan ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Yagona axborot maydoni tushunchasi: shakllanishi, xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlanib, unda xalqaro integratsiyaning kuchayishi, globallashuv tendensiyasi va yagona axborot maydoniga zaruriyat hamda bugungi axborot maydonining o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Hozirgi zamon ilm-fan va texnika yutuqlari axborotga bo'lgan talab va ehtiyojni oshirayotganligi, xalqaro integratsiya va globallashuv tendensiyasi, dunyoning mustaqil mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarni davom ettirish, ularga o'zaro bog'liqlikni oshirish va bir-biriga qarshilik ko'rsatish qiyinligi bilan bog'liq muhim jarayonlar ochib berilgan.

Yagona axborot maydoni vujudga kelishi xalqlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga bog'lab qo'ymoqda. Axborot insonlarning ichki, ruhiy va tafakkur olamini boyituvchi yoki tanazzulga yetaklovchi bosh omil bo'lib ulgurdi. Bugun insonlar o'z hayotiy qiziqishlarini aynan yagona axborot makoni (maydoni) orqali yuzaga chiqarmoqda. O'zaro aloqalar, moddiy va ma'naviy almashinuv, yagona axborot maydonida qo'llanilayotgan yangi texnik vositalarga avvalo, internetga bog'liq bo'lib qoldi. Jamiyatdagi insonlar uchun axborot – eng kuchli ta'sirga ega vositalardan biridir. Olinayotgan va to'planayotgan bilimda axborot olishning oddiy usullari ham shu qadar muhim ahamiyatga egaki, hech kim unga hech narsani qarshi qo'ya olmaydi. Tabiatan inson shunday yaralganki, kundalik axborotni qabul qilmasdan, tushunib, to'g'ri xulosa chiqarishga harakat qilmasdan yashay olmaydi. Axborot boshqarish, ta'sir o'tkazish, yaratish kuchiga ega bo'lib, u odamlarni boshqaradi va ta'sir doirasida ushlaydi.

Dissertant fikricha, hozirgi zamon ilm-fan, texnika yutuqlari axborotga bo'lgan talab va ehtiyojni yanada oshirdi. Texnik vositalar va qurilmalar asosida axborot almashish o'zining tezkorligi, arzonligi va vaqt tejamkorligi kabi qulayliklari bilan juda katta taraqqiyotga erishdi. Axborot oqimining tezlashuvi xalqlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga bog'lab qo'ydi.

Dissertatsiyada xalqaro integratsiya va globallashuv tendensiyasi, dunyoning mustaqil mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarni davom ettirish, ularga o'zaro bog'liqlikni oshirish va bir-biriga qarshilik ko'rsatish qiyinligi bilan bog'liq muhim jarayonlardan biri ekanligi asoslab berilgan. Bu jarayon, umumiy xalqaro darajadagi tuzilmalarning yaratilishi va ta'minlashiga yo'l ochadi, shuningdek,

o‘zaro almashinuvning davlatlararo huquqiy asoslari kiberxavfsizligi yaratilishini kerakli dasturiy ta‘minot va texnologiyalarni yaratishni talab qilishi ta‘kidlangan.

Globalashuv davrida dunyodagi mamlakatlar o‘zaro bog‘liqlikni kengaytirish va o‘zaro almashinuvni oshirishiga intilib kelishadi. “Globalashuv zamonaviy taraqqiyotning bosh tendensiyasidir. U butun yer kurrasiga oid. Taraqqiyot darajasi qandayligidan, qaysi qit‘ada joylashganidan qat‘i nazar barcha mamlakatlar, xalqlar hayotiga ta‘sir ko‘rsatuvchi umumiy omillar, yo‘nalishlar, qonuniyatlarni anglatadi”¹¹. O‘zaro almashinuv, shu jumladan, bugungi yagona axborot maydonining asosiy vositasi internetga bog‘liq. Internet, dunyoning har bir burchagida, har xil millatga mansub odamlarni birlashtirish va ularning o‘z fikrini bildirishga, boshqalardan olishga imkon beradi. Yagona axborot maydoniga integratsiya, xalqaro tashqi iqtisodiy aloqalarning, turli mamlakatlar va institutlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarning yaxlit tarmog‘i hisoblanadi. Jahon miqyosidagi integratsiya ishlab chiqarish, bozor va kommunikatsiyalarning rivojlanishiga asoslanadi. Bu esa:

- integratsiyalashgan mamlakatlarning keskin ijtimoiy muammolarni birgalikda hal qilishiga imkon beradi;

- mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlik nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy, madaniy va boshqa sohalarida kengayishini ta‘minlab beradi;

- ta‘lim, ilm-fan, texnologiyalar sohasida axborot almashinivi, kadrlar almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi. Bular hammasi integratsiyalashgan mamlakatlar aholisining turmush tarzi, milliy madaniyatlari, qadriyatlar tizimi yaqinlashuviga yordam beradi, xalqlarni ajratuvchi turli mafkuraviy, psixologik, madaniy ta‘sirlar kamayadi, bir-biriga nisbatan tolerantlik kuchayadi.

Dissertatsiyada globalashuv masalasini bugungi kunda barcha mamlakatlardagi olimlar, siyosatchilar, jurnalistlar va tadbirkorlar muhokama qilayotganlari ochib berilgan. Ularning barchasi mazkur fenomenni dunyo xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma‘naviy-madaniy hayotining o‘ziga xos bo‘lgan zamonaviy holati, ularda kechayotgan ichki va tashqi jarayon hamda ularning umumplanetar tarzda rivojlanish tendensiyasi sifatida talqin etayotganlari dalillangan.

Yagona axborot makoni rivojlanishiga yo‘naltirilgan tendensiyaning yana bir asosiy omili hayotning barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan ko‘proq foydalanish bo‘lmoqda. Smartfon va planshetlardan tortib yuqori tezlikdagi internet ulanishlari va bulutli hisoblashlargacha bo‘lgan ushbu texnologiyalar odamlarga dunyoning qayerida bo‘lishidan qat‘i nazar, ma‘lumotlarga kirish va almashishni har qachongidan ham osonlashtirdi. Bu ta‘lim va sog‘liqni saqlashdan tortib biznes va hukumatgacha bo‘lgan hamma narsaga chuqur ta‘sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, xavfsiz va ishonchli yagona axborot maydoniga ehtiyoj ortib borayotganligini namoyon qilmoqda.

Dissertatsiyada jahon umumiy axborot maydoni vujudga kelishi obyektiv zaruriy, qonuniy hodisa ekanligi, umumjahon ma‘naviy, savdo, iqtisodiy, transport, aloqa, texnologiyalar, madaniy qisman siyosiy integratsiya va globalashuv

¹¹ Erkayev A. Ma‘naviyatshunoslik. - T.: Ma‘naviyat, 2018. B.245.

tendensiyasi tomonidan taqozo etilishi, uning o'zi esa integratsiya va globallashuv tendensiyalarining harakatlantiruvchi kuchi va kommunikatsion asosiga aylanib, davlatlararo zaruriy raqobatga va geosiyosiy kurash obyektiga ekanligi bilan ahamiyatli ta'kidlangan. Yagona axborot maydoniga falsafiy-aksiologik nuqtai nazardan yondashilsa, manzara nihoyatda chigallashadi. Bu nuqtai nazardan axborotni turlicha tasniflash mumkin. Jumladan:

- insonga ijobiy mazmundagi bilim berish, uning ongi-shuurini rivojlantiruvchi axborot. O'z navbatida bu axborotni ilmiy, ilmiy-amaliy, texnologik-kasbiy, badiiy-estetik, axloqiy, siyosiy va shu kabilarga bo'lish mumkin. Binobarin ular tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarga ajratiladi;

- insonlarga mazmunan salbiy bilim berish, unda nafs-hirsni rag'batlantiruvchi, agressif xulq-atvorni, zo'ravonlikka moyillikni, ekstremistik kayfiyatni shakllantiruvchi axborot. Hozirgi globallashuv davri ma'naviy tarbiyani yanada boyitish, yoshlarni g'arazli g'oyalar ta'siridan himoyalashni taqozo etmoqda. Yosh avlodning istiqbolini, yorqin kelajagini istaydigan har bir ota-ona tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor bermog'i zarur. O'sib kelayotgan yosh avlodni diniy-milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ular qalbida o'z xalqi, Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini kuchaytirish, ularni har xil buzg'unchi kuchlarning axborot xurujlaridan ogoh etish, munosib himoya qilishdan iboratdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Internet va u yaratgan virtual voqelikning ma'naviy tahdidning bir turiga aylanishi”** deb nomlanib, unda postmodern jamiyatining yagona axborot maydonida ma'naviyatga xavf soluvchi yangi tahdidlarning paydo bo'lishi hamda virtual olamning gipervoqelik sifatidagi masalalari tahlil obyektiga aylantirilgan.

Zamonaviy dunyoda texnologiya odamlarga misli ko'rilmagan qulaylik bilan muloqot qilish va fikr almashish imkonini beradigan yagona axborot maydonini yaratdi. Biroq, ushbu texnologiyaning foydalari bilan bir qatorda, ma'naviyatga yangi tahdidlar ham mavjud bo'lib, ular yagona axborot sohasida paydo bo'ldi. Eng katta tahdidlardan biri bu insoniy aloqani yo'qotishdir. Odamlar har qachongidan ham ko'proq bog'langan dunyoda o'zini yolg'iz his qiladi. Raqamli aloqa ko'pincha sayoz bo'lib tuyulishi mumkin va odamlar internetda boshqalar bilan chuqur aloqa o'rnatishga qiynalishi mumkin. Bu yolg'izlik, ruhiy tushkunlik va atrofdagi dunyodan uzilishga olib keladi – bularning barchasi ruhiy farovonlikka putur yetkazishi mumkin. Yagona axborot maydonida vujudga kelgan ma'naviyatga tahdidlardan yana biri – nafrat va ekstremistik g'oyalar targ'ibotidir. Ijtimoiy media platformalar va boshqa onlayn makonlar nafrat nutqi, soxta yangiliklar va tashviqot uchun asos bo'lib qoldi – bularning barchasi mehr, hamdardlik va bag'rikenglik kabi ma'naviy qadriyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, ekstremistik guruhlar ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni radikallashtirish, bo'linishlarni yanada kuchaytirish va ijtimoiy hamjihatlikni buzish uchun onlayn platformalardan foydalanishga muvaffaq bo'ldi. Yagona axborot maydonida ma'naviyatga uchinchi tahdid – iste'molchilik va materializmning kuchayishi. Internet reklama va marketing xabarlarini bilan to'lib-toshgan bo'lib, ular odamlarning qadr-qimmatini va ular egalik qilishlari va iste'mol

qilishlari bilan bog'liqligiga ishonirishga harakat qilishadi. Bu moddiy narsalarga noto'g'ri e'tibor qaratishga olib kelishi mumkin, bu esa rahm-shafqat, hamdardlik, ma'no va maqsadga intilish kabi ma'naviy intilishlardan mahrum bo'lishga olib keladi. Nihoyat, yagona axborot maydoni ma'naviy farovonlikka chuqur ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxsiy hayot va xavfsizlik uchun yangi muammolarni keltirib chiqardi. Odamlar shaxsiy ma'lumotlarini onlayn ravishda baham ko'rganlarida ma'lumotlarning buzilishi, xakerlik va boshqa ekspluatatsiya shakllariga qarshi himoyasiz bo'lib qolmoqda. Bu ishonch va halollik kabi ma'naviy qadriyatlarni buzilishi va ishonchsizlik tuyg'ulariga olib kelmoqda.

Dissertatsiyada postmodern jamiyatga xos tendensiyalar shaxs ijtimoiy mohiyatining transformatsiyasiga sabab bo'layotganligi asoslab berilgan. Bu transformatsion jarayonlar ijobiy xarakterga ega emas. Chunonchi, mazkur tendensiyalar ta'sirida:

- shaxs hayotiy maqsadlari transformatsiyasi yuz berayapti;
- shaxs tafakkuri fragmentarlashayapti;
- shaxs qadriyat va ehtiyojlari tizimi deformatsiyasi sodir bo'layapti;
- shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar xarakteri yangicha tus olayapti;
- shaxs hayotiy prinsiplari tubdan o'zgarayapti.

Postmodern jamiyatda ijtimoiy hayotning barcha sohalariga axborot texnologiyalarini kirib kelishi va "axborot portlashi" natijasida ko'pchilik insonlar, ayniqsa yoshlar ijtimoiy mo'ljallarini, hayotiy ideallarini aniqlashda qiynalishmoqda¹². Umuman olganda, postmodern jamiyatining yagona axborot maydonida ma'naviyatga yangi tahdidlarning paydo bo'lishi alohida shaxslar va institutlar o'rtasida hushyorlik va ogohlilikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, virtual olam – bu kompyuterga asoslangan onlayn hamjamiyat muhiti bo'lib, u odamlar tomonidan ishlab chiqilgan va baham ko'rilgan. Ular maxsus qurilgan, simulyatsiya qilingan dunyoda o'zaro muloqot qilishlari mumkin. Bugungi virtual olam ko'ngilochar, ijtimoiy, ta'lim, o'quv va boshqa turli maqsadlar uchun yaratilgan. Virtual olam o'ziga xos global axboriy-raqamli qonuniyatlarga bo'ysinadi. Virtualistika bo'yicha olib borilayotgan ishlarni asosan *to'rt yo'nalishga* ajratish mumkin. *Birinchisi*, sistemalar nazariyasi, modellashtirish, kompyuter grafikasi, mul'timedia va boshqalarda erishilgan yutuqlarni hisobga olishga tayanadigan nazariy ishlar. *Ikkinchisi*, virtual reallik muammosining falsafiy va psixologik jihatlari hamda uning insonga, odamlar guruhi va butun jamiyatga ta'siri haqidagi ishlar. *Uchinchisi*, virtual reallikka tegishli sistemalarni inson faoliyatining texnik sohalarida, ta'limda, ilmiy tadqiqotlarda, biznesda va boshqalarda foydalanish muammolariga bag'ishlangan ishlar. *To'rtinchisi*, virtual reallikning axloq, siyosat, madaniyatshunoslik bilan bog'liq muammolari bo'yicha ham ishlar olib borilmoqda. Ba'zi kishilar real, jonli hayotdan, muloqotdan ko'ra, o'zlarining ko'p vaqtini internetning virtual, hayotot dunyosida, virtual muloqotda o'tkazmoqdalar. Ular kompyuter va internet bandilariga, asirlariga aylanib qolayotir. "Yoshlar virtual hayotga shunchalik kirib

¹² Эмелин В.А. Информационные технологии в контексте постмодернистской философии. / Дисс. на соискании ученой степени кандидата философских наук, Москва 1999, - С.164

ketmoqdaki, milliy ma'naviy qadriyatlar ming yillar davomida shakllangan, o'tmish avlodlardan o'tib kelayotgan ma'naviy boylik ekanligini bilishmaydi. O'smir yoshdagi bolalarning internetga qattiq bog'lanib qolish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa "internet kasalligi" (ludomaniya)ni keltirib chiqaradi"¹³.

Dissertatsiyada yoshlarda o'ziga xos virtual autizm, ya'ni o'z olamiga singish, muloqotdan qochish, o'z muammolari qozonida o'zi "qovurilish" jarayonlari asta-sekin rivojlana boshlayotganligi qayd etiladi. Bu esa virtual olamga bog'lanib qolish hisoblanadi. U o'z ichiga *uch bosqichni* oladi: *Birinchi* bosqichda o'smir kompyuter imkoniyatlarini o'rganadi, o'zini virtual voqelikka tayyorlaydi. *Ikkinchi* bosqichda o'smir bor imkoniyatlarini ishga solishni o'rganadi va ko'p vaqtini kompyuter oldida o'tkaza boshlaydi. Internet uning uchun yagona axborot va muloqot manbaiga aylanadi. O'smir virtual voqelikni haqiqiy hayot deb qabul qiladi. Tobelikning *uchinchi* bosqichida esa u butun vaqtini kompyuter oldida o'tkazadi, uni bu olamdan olib chiqishga bo'lgan har qanday urinishga nisbatan g'azab bilan munosabatda bo'ladi.

Dissertant o'smirlarning virtual olamga tobeligini quyidagicha guruhlariga bo'ladi:

- *o'yinga tobelik* – turli qiziqarli o'yinlarga mahliyo bo'lgan o'smir borliqni unutadi. U faol hayotdan uzoqlashadi, hattoki ovqatlanish, o'ziga qarash, dam olish, tabiiy ehtiyojlari uchun sarflash lozim bo'lgan vaqtini ham o'yinga bag'ishlaydi;

- *virtual tanishuvlarga ruju qo'yish* - faqat internet tarmog'idan do'st qidirish bilan band bo'ladi, real hayotdagi do'stona munosabatlarni unutadi;

